

DOI: [https://dx.doi.org/ 10.51788/tsul.rols.2023.7.1/LCMP8053](https://dx.doi.org/10.51788/tsul.rols.2023.7.1/LCMP8053)
UDC: 340.13+342.9(045)(575.1)

HUQUQIY EKSPERTIZA – NORMA IJODKORLIGI FAOLIYATINING ASOSIY BOSQICHI SIFATIDA

Xo'janazarov Azizjon Anvarovich,

Toshkent davlat yuridik universiteti

katta o'qituvchisi, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)

ORCID: 0000-0001-9062-2601

e-mail: a.xujanazarov@tsul.uz

Annotatsiya. Bugungi kunda yurisprudensiyada norma ijodkorligi dolzarb ahamiyatga ega bo'lgan tadqiqot mavzularidan biridir. Norma ijodkorligi faoliyati normativ-huquqiy hujjatlar ishlab chiqish, loyihalarini manfaatdor idoralar bilan kelishish, jamoatchilik muhokamasi hamda huquqiy va boshqa turdagi ekspertizani amalga oshirishni qamrab oladi. Ta'kidlash lozimki, normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarining huquqiy ekspertizasi norma ijodkorligi faoliyati asosiy bosqichlaridan biri hisoblanadi. Maqolada normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarining huquqiy ekspertizasi bosqichida qabul qilinishi lozim bo'lgan normativ tusdagi rasmiy hujjatlarning amaldagi qonunchilikka muvofiqligi izchil o'rganilgan. Shundan kelib chiqib, normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarining huquqiy ekspertizasi va ushbu bosqichda ishtirok etuvchi davlat organlari faoliyatiga oid nazariy hamda huquqiy masalalar atroflicha tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada norma ijodkorligi faoliyatining asosiy bosqichi sifatida normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarining huquqiy ekspertizasi amaldagi qonunchilik normalari asosida batafsil ochib berilgan. Ilg'or xorijiy tajriba tahlili asosida normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarining huquqiy ekspertizasiga oid chet el amaliyoti o'rganilgan. Mavzudan kelib chiqib, huquqni qo'llash amaliyoti va milliy qonunchilikni takomillashtirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: davlat, norma ijodkorligi, hujjat, qonun, huquqiy, ekspertiza, loyiha, bosqich, xulosa, adliya, qaror, buyruq.

ПРАВОВАЯ ЭКСПЕРТИЗА КАК ОСНОВНОЙ ЭТАП НОРМОТВОРЧЕСТВА

Хужаназаров Азизжон Анварович,

доктор философии по юридическим наукам (PhD),

старший преподаватель Ташкентского

государственного юридического университета

Аннотация. На сегодняшний день в правоведении тема нормотворчества является одной из важнейших исследовательских тем. Нормотворческая деятельность включает в себя разработку нормативно-правовых документов, согласование проектов с заинтересованными органами и общественное обсуждение, а также проведение юридических и иных видов экспертиз. Следует отметить, что правовая экспертиза проектов нормативных правовых документов является одним из основных этапов нормотворческой деятельности. На этапе правовой экспертизы проектов нормативно-правовых документов последовательно изучается соответствие официальных документов нормативного характера действующему законодательству. Исходя из этого, в данной научной статье тщательно анализируются теоретико-правовые вопросы, связанные с правовой экспертизой проектов нормативных правовых документов и деятельностью государственных органов, участвующих на данном этапе. Также в статье в качестве основного этапа нормотворчества подробно раскрывается правовая экспертиза проектов нормативных право-

вых документов на основе действующих правовых норм. На основе анализа передового зарубежного опыта изучена зарубежная практика правовой экспертизы проектов нормативных правовых документов. На основе темы разработаны предложения и рекомендации, направленные на совершенствование правоприменительной практики и национального законодательства.

Ключевые слова: государство, нормотворчество, документ, закон, правовой, экспертиза, проект, стадия, заключение, правосудие, решение, приказ.

LEGAL EXPERTISE AS THE MAIN STAGE OF NORM MAKING

Khujanazarov Azizjon Anvarovich,

Senior lecturer, Tashkent State University of Law,
Doctor of Philosophy (PhD) in Law

Abstract. Today, in jurisprudence, the topic of “rule-making” is one of the most important research topics. Rule-making activities include the development of legal documents, the coordination of projects with interested authorities and public discussion, as well as the conduct of legal and other types of expertise. It should be noted that the legal expertise of draft normative legal documents is one of the main stages of rule-making activity. At the stage of legal expertise of draft regulatory documents, the compliance of official documents of a regulatory nature with the current legislation is consistently studied. Based on this, this scientific article carefully analyzes the theoretical and legal issues related to the legal expertise of draft regulatory legal documents and the activities of state bodies involved at this stage. Also in the article, as the main stage of rule-making, the legal examination of draft regulatory legal documents on the basis of existing legal norms is disclosed in detail. Based on the analysis of advanced foreign experience, the foreign practice of legal expertise of draft regulatory legal documents has been studied. Based on the theme, proposals and recommendations aimed at improving law enforcement practice and national legislation have been developed.

Keywords: state, rule-making, document, law, legal, expertise, project, stage, conclusion, justice, decision, order.

Kirish

Norma ijodkorligi mamlakatimizda tobora rivojlanib borayotgan huquqiy sohalardan biri bo'lib, bu borada konseptual hamda institutsional islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, “aqlli tartibga solish” modeli, tartibga solish ta'sirini baholash, “paket” prinsipi, korrupsiyaga qarshi, gender-huquqiy va ilmiy lingvistik ekspertiza turlari hamda normativ-huquqiy hujjatlarni to'g'ridan to'g'ri amal qiluvchi qonun loyihalari sifatida qabul qilish tizimiga o'tilayotganligi shular jumlasidandir.

O'z navbatida, normativ-huquqiy hujjat loyihasining huquqiy ekspertizasi norma ijodkorligining muhim bosqichi bo'lib, ushbu bosqichda Konstitutsiya va qonunning ustunligi bevosita ta'minlanadi.

Ta'kidlash lozimki, normativ-huquqiy hujjat loyihasining huquqiy ekspertizasi so-

hasida ham samarali ishlar amalga oshirildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 13-apreldagi “O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi faoliyatini yanada takomillashtirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-3666-son qaroriga ko'ra, normativ-huquqiy hujjatlarning loyihalari Vazirlar Mahkamasiga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasiga faqat huquqiy ekspertiza yakuni bo'yicha ularni qabul qilishning maqsadga muvofiqligi haqidagi O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining xulosasi mavjud bo'lgandagina kiritilishi belgilandi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 19-maydagi PF-5997-son Farmoni bilan texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarni vazirlikda majburiy tartibda huquqiy eks-

pertizadan o'tkazish hamda ijobiy xulosa olingandan so'ng hisobga olinishi va kuchga kirish tartibi amaliyotga joriy etildi.

Mazkur hujjatga ko'ra, idoraviy normativ-huquqiy hujjatni davlat ro'yxatidan o'tkazishda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirining buyrug'ini qabul qilish amaliyoti bekor qilindi hamda idoraviy normativ-huquqiy hujjatga davlat reyestri orqali unikal raqam bergan holda, davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibi joriy etildi.

Bundan tashqari, sohaning raqamlashtirilishi natijasida *"project.gov.uz"*, *"e-qaror.gov.uz"* kabi normativ-huquqiy hujjatlar loyihasini ishlab chiqish va kelishishning elektron tizimlari faoliyati yo'lga qo'yildi.

Qayd etish lozimki, amaldagi qonunchilik ko'ra, mamlakatimizda normativ tusdagi har qanday rasmiy hujjat (qonun, farmon, qaror va buyruq) loyihasi qonunchilikka muvofiqligi yuzasidan huquqiy ekspertizadan o'tkazilgandan so'ng normativ-huquqiy hujjat qabul qilish huquqiga ega bo'lgan organga kiritiladi.

Ma'lumot uchun: O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2022-yil 4-fevraldagi SQ-477-IV-son qarorida ko'rsatilishicha, Adliya vazirligiga huquqiy ekspertizadan o'tkazish uchun kelib tushgan jami 2 554 ta normativ-huquqiy hujjat loyihasidan 2 246 tasi (88 foizi) huquqiy ekspertizadan o'tkazilgan. Shundan 308 tasi (12 foizi) huquqiy ekspertizadan o'tkazilmasdan qaytarilgan, 640 tasi (28,5 foizi) e'tirozlar bilan qaytarilgan.

Material va metodlar

Ta'kidlash lozimki, norma ijodkorligi faoliyatining asosiy bosqichlaridan biri hisoblangan qonunchilik hujjatlari loyihalarini huquqiy ekspertizadan o'tkazish huquqshunos olimlar va tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan. Xususan, huquqshunos olimlarimizdan M.K. Najimov (Norma ijodkorligi), X.S. Hayitov (Qonun ijodkorligida ekspertiza o'tkazishning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish), O. Fayziyev (Vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarning

buyruqlari hamda qarorlarini huquqiy ekspertiza va davlat ro'yxatidan o'tkazish faoliyati samaradorligini oshirish)lar tomonidan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarining huquqiy ekspertizasi masalalari atroflicha o'rganilgan.

Mazkur olimlarning ilmiy qarashlari maqolada batafsil tahlil qilingan hamda ularning manbalariga tegishli iqtiboslar keltirilgan.

Shuningdek, maqolani yoritishda ilmiy bilishning *tahlil, umumlashtirish, qiyosiy-huquqiy, mantiqiy, tarixiy, statistik, sotsiologik, tizimli-tuzilmaviy, formal-yuridik* o'rganish usullaridan foydalanildi.

Tadqiqot natijalari

Qonunchilik hujjatlari loyihalarining huquqiy ekspertizasiga oid nazariy-huquqiy tahlil. Ijtimoiy hayotning deyarli barcha sohalarida qonun ustuvorligini ta'minlash va davlat organlari faoliyatida qonuniylikni ta'minlashning asosiy yo'llaridan biri, birinchi navbatda, ular tomonidan chiqariladigan qonunchilik hujjatlarining loyihalarini huquqiy ekspertizadan o'tkazishdir.

Zero, jamiyatda qonun ustuvorligi, yuzaga keluvchi har qanday turdagi ijtimoiy-iqtisodiy va huquqiy munosabatlar tegishli normativ-huquqiy hujjatlar asosida tartibga solinadi. Ma'lumki, qonunchilik hujjatlari loyihalarining huquqiy ekspertizasi, o'z navbatida, norma ijodkorligi faoliyatining asosiy institutlaridan biri hisoblanadi.

Dastavval ekspertiza va huquqiy ekspertiza tushunchalarining lug'aviy va huquqiy tavsifi alohida to'xtalib o'tsak.

Ekspertiza tushunchasi O'zbek tilining izohli lug'atida quyidagicha izohlangan: "Ekspertiza – (fr. expertise, lot. expertus – tajribali; sinalgan) qiyin yoki chigal masalani yechish va hal qilish uchun mutaxassislar ishtirokida uyushtirilgan tekshirishdir" [1].

A.A. Razuvayev mazkur tushunchaga shunday ta'rif bergan: "Ekspertiza – maxsus bilimlarni qo'llab, ma'lumotli (ekspert) shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan o'rganish bo'lib, belgilangan tartibda mazkur

o'rganish natijasi yuzasidan to'g'ri va asoslantirilgan qarorlar qabul qilish va xulosa berishdir" [2].

Shuningdek, Y.V. Sidelnikov ekspertizani qisman noaniqlik sharoitida qabul qilinayotgan qarorlarni asoslantirish uchun materiallar tayyorlash maqsadida ekspertiza obyektlarini tahlil qilish va (yoki) baholash uchun ekspertlarni jalb qilish yo'li bilan amalga oshiriluvchi baholash-tahlil faoliyati sifatida ta'riflaydi [3].

Huquqshunos olim M.K. Najimov huquqiy ekspertiza tushunchasiga yuridik va jismoniy shaxslarning qabul qilingan huquqiy hujjat yoki uning loyihasi bo'yicha Konstitutsiya va qonunchilik hujjatlari, shuningdek, belgilab qo'yilgan yuridik texnika qoidalariga muvofiqligi nuqtayi nazaridan xulosa berish borasidagi faoliyat sifatida ta'rif bergan [4].

Y.V. Skurkoning fikricha, qonun loyihasining huquqiy ekspertizasi qonun loyihasining Konstitutsiyaga muvofiqligi hamda amaldagi qonunchilik va xalqaro shartnomalar tizimidagi o'rnini baholash, shuningdek, qonunchilik texnikasi qoidalari nuqtayi nazaridan uning sifati va natijaviyligini belgilashdir [5].

Bundan tashqari, huquqshunos olim X.S. Hayitov qonun loyihalari ekspertizasi tushunchasiga maxsus bilim va malakaga ega ekspert yoki ekspertlar guruhining qonun loyihalari yuzasidan natijasi xulosa tarzida rasmiylashtiriladigan, ularda yo'l qo'yilgan turli kamchiliklarni aniqlash, bartaraf etish, qonun loyihalarining qonunchilik tizimi, xalqaro huquq normalari, qonunchilik texnikasi, mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlarga qanchalik muvofiqligini baholash asosida asoslantirilgan tavsiyalar ishlab chiqishga qaratilgan faoliyat sifatida ta'rif berib o'tgan [6].

Huquqiy ekspertizani bir tomondan qonunchilik natijaviyligini baholash vositalaridan biri sifatida, boshqa tomondan esa tadqiqotning alohida predmeti va belgilangan uslublar to'plami, uni o'tkazish vakolatiga ega maxsus subyektlar, ekspert xulosasi shaklida-

gi natija, huquqiy tartibga solish mexanizmi-da belgilangan joy kabi maxsus xususiyatlarga ega bo'lgan huquqiy institut sifatida hisoblash imkoniyatlarini beradi [7].

A.N. Mironov va S.N. Ushakovlarning fikricha, normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarining ekspertizadan o'tkazilishi ijro hokimiyati organlari faoliyatining muhim yo'nalishi bo'lib, quyidagilarga yordam beradi: qabul qilinadigan normativ-huquqiy hujjatlarning qonuniyligi, asoslantirilganligi va yuqori sifatililigini ta'minlaydi; qabul qilinuvchi qonunchilik hujjatlarining ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va ekologiyaga oid salbiy oqibatlari aniqlanadi; o'zaro bog'liq bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlarning ilmiy asoslantirilgan tizimi shakllantiriladi [8].

O'zbekiston Respublikasining "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi Qonuni 26-moddasiga ko'ra, huquqiy ekspertiza jarayonida normativ-huquqiy hujjat loyihasining O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari, unga nisbatan yuqoriroq yuridik kuchga ega bo'lgan boshqa normativ-huquqiy hujjatlar, yuridik-texnik jihatdan rasmiylashtirishning talablariga muvofiqligi, shu jumladan, normativ-huquqiy hujjat loyihasida havola qiluvchi normalar qo'llashining asosliligi hamda maqsadga muvofiqligi tekshiriladi. Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarining huquqiy ekspertizasi ishlab chiquvchi yoki normativ-huquqiy hujjat qabul qilish huquqiga ega bo'lgan organning yuridik xizmati, shuningdek, Adliya vazirligi, uning hududiy bo'linmalari va boshqa tashkilotlar tomonidan qonunchilikka muvofiq o'tkaziladi.

Mazkur qonunning 27-moddasiga ko'ra, Adliya vazirligi normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarining huquqiy ekspertizasi manfaatdor tashkilotlar bilan kelishilganidan va boshqa turdagi ekspertizalar amalga oshirilganidan so'ng o'tkazadi. Vazirlik normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarining huquqiy ekspertizasi, shu jumladan, ularda korrupsiya ko'rinishlari, boshqa huquqbuzarliklarni

sodir etish uchun shart-sharoitlarni yuzaga keltiradigan, jismoniy va yuridik shaxslar uchun ortiqcha ma'muriy va boshqa cheklovlarini joriy etadigan qoidalar va normalar bor-yo'qligini aniqlash, shuningdek, zarur bo'lgan normalarni bitta normativ-huquqiy hujjatda aks ettirgan hamda tegishli munosabatlarni tartibga soluvchi boshqa normalarni bekor qilgan holda, qonunchilikni kodifikatsiya qilish imkoniyati mavjudligi nuqtayi nazaridan huquqiy ekspertizasini o'tkazadi.

Qonunga ko'ra, Adliya vazirligi tomonidan qonun loyihalarining huquqiy ekspertizasini amalga oshirish jarayonida bu loyihalar ularning to'g'ridan to'g'ri amal qilishi va ular da takrorlovchi yoki qonun loyihalarining normalariga zid bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlar mavjudligini keyinchalik ularni bekor qilish uchun aniqlash nuqtayi nazari dan baholanishi shart. Huquqiy ekspertiza yakunlariga ko'ra, vazirlik tomonidan xulosa taqdim etiladi. Mahalliy davlat hokimiyati organlari qarorlari loyihalarining huquqiy ekspertisasi hududiy adliya organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Qayd etilganlardan kelib chiqib, normativ-huquqiy hujjat loyihasining huquqiy ekspertizasiga *“qonun hujjati loyihalari ishlab chiquvchisining yuridik xizmati, shuningdek, adliya organlari tomonidan loyihani unga nisbatan yuqori yuridik kuchga ega bo'lgan qonunchilik va xalqaro hujjatlar, norma ijodkorligi texnikasi qoidalariga muvofiqligi va loyihalarda huquqbuzarliklarni keltirib chiqaruvchi omillarni aniqlash nuqtayi nazaridan har tomonlama o'rganish hamda natijasi bo'yicha belgilangan tartibda xulosa berishni qamrab olgan faoliyat”* deb ta'rif berilishi maqsadga muvofiq.

Shuningdek, davlat boshqaruvi tizimi va jamiyat hayotida turli huquqbuzarliklar yuzaga kelishining oldini olish, xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun ortiqcha cheklovlar joriy etadigan qoidalar mavjudligini aniqlash maqsadida normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarining huquqiy ekspertizasini *majburiy-*

lik, qonuniylik, mustaqillik, ilmiylik, oshkoralik, tizimlilik prinsiplariga asosan amalga oshirish o'rinli.

Ushbu prinsiplarni normativ-huquqiy hujjat loyihasini huquqiy ekspertizadan o'tkazish bosqichiga aloqadorligi nuqtayi nazaridan quyidagicha ilmiy hamda huquqiy asoslash mumkin:

majburiylik prinsipiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasining “Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida”gi Qonuni 25-moddasiga muvofiq, normativ-huquqiy hujjat loyihasi huquqiy ekspertizadan o'tkazilishi shart ekanligi bilan belgilanadi;

qonuniylik prinsipi bo'yicha normativ-huquqiy hujjat loyihasining mazmuni yuqoriroq yuridik kuchga ega bo'lgan qonunchilik hujjatlariga muvofiq ifodalanadi;

mustaqillik prinsipi ekspertlarning normativ-huquqiy hujjat loyihasiga baho berishda mustaqilligi va ekspertiza o'tkazishni topshirgan organning nuqtayi nazaridan xoli mazkur faoliyatni amalga oshirishlarida ifodalanadi;

ilmiylik prinsipi olim va mutaxassislar jalb etilgan holda huquqiy ekspertiza o'tkazilishi normativ-huquqiy hujjat loyihalarini yurisprudensiya sohalari kesimida ular tomonidan nazariy tahlil amalga oshirilishida ifodalana di;

oshkoralik prinsipini normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari jamoatchilik yoki mutaxassislar muhokamasiga qo'yilishida ko'rish mumkin;

tizimlilik prinsipi nuqtayi nazaridan O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirining 2012-yil 9-apreldagi 83-mh-son buyrug'i (ro'yxat raqami 2352, 09.04.2012-yil) bilan tasdiqlangan Uslubiy ko'rsatmalarga muvofiq, dastlab ishlab chiquvchining yuridik xizmati tomonidan normativ-huquqiy hujjat loyihasi huquqiy ekspertizadan o'tkaziladi va manfaatdor organlarga kelishish uchun yuboriladi. Kelishilgandan so'ng loyiha Adliya vazirligi tomonidan huquqiy ekspertizadan o'tkaziladi va vazirlik tomonidan ijobiy xu-

losa berilganidan keyin ishlab chiquvchi tomonidan Vazirlar Mahkamasiga kiritiladi.

Bundan tashqari, normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarining huquqiy ekspertizasi ni tasniflashda quyidagi ilmiy yondashuv va huquqiy asoslarni keltirish mumkin.

Xususan, Y.V. Razdyakonova va Y.D. Tretyakovalar [9] ekspertizaning quyidagi turlarini ajratishgan: ekspertlik faoliyatini amalga oshiruvchi subyektlarga bog'liq ravishda:

a) kompleks (agar normativ-huquqiy hujjat yoki loyiha bir nechta huquqiy tartibga solish sohalariga aloqador bo'lsa);

b) ixtisoslashtirilgan (agar normativ-huquqiy hujjat loyihasi tartibga solinuvchi ijtimoiy munosabatlarning qaysidir sohasiga taalluqli bo'lsa).

Bizningcha, normativ-huquqiy hujjatlarining huquqiy ekspertizasini milliy qonunchilik va ilmiy manbalar asosida quyidagicha tasniflash maqsadga muvofiq:

a) huquq sohalari bo'yicha: korrupsiyaga qarshi, gender-huquqiy, xalqaro huquqiy, kriminologik;

b) vakolatli subyektlar bo'yicha: normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari ishlab chiquvchisi yoki ushbu turdagi hujjatlarni qabul qilish vakolatiga ega organning yuridik xizmati, shuningdek, adliya organlari tomonidan o'tkaziladigan huquqiy ekspertiza;

d) qonunchilik hujjatlari bo'yicha: qonun va qonunosti hujjatlari huquqiy ekspertizasi.

Fikrimizcha, milliy qonunchilik va tashkiliy-boshqaruv nuqtayi nazaridan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarining huquqiy ekspertizasini quyidagicha tasniflash mumkin:

1. Amaldagi qonunchilikka muvofiq, qonunchilik hujjatlarining huquqiy ekspertizasi, o'z navbatida, "subyekt"lar bo'yicha *loyihani ishlab chiquvchining yuridik xizmati va adliya organlari tomonidan amalga oshiriladigan huquqiy ekspertizaga* bo'linadi.

2. Sohasi bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarining huquqiy ekspertizasi-

ga *gender-huquqiy, korrupsiyaga qarshi va boshqa huquqbuzarliklarni aniqlashga* oid ekspertizalarni kiritish mumkin.

Mazkur huquqiy ekspertiza turlarini amaldagi qonunchilikdan kelib chiqib, quyida batafsil ko'rib chiqamiz.

Tadqiqot natijalari tahlili

Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarining huquqiy ekspertizasi tasnifidan kelib chiqib, sohani tartibga soluvchi milliy qonunchilik hujjatlari asosidan huquqiy ekspertizani quyidagicha kengroq tahlil qilish mumkin.

Gender-huquqiy ekspertiza. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 30-martdagi 192-son qarori bilan tasdiqlangan "Normativ-huquqiy hujjatlar va ularning loyihalarini gender-huquqiy ekspertizadan o'tkazish tartibi to'g'risida"gi nizomga ko'ra, normativ-huquqiy hujjatlar hamda ularning loyihalarini xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlarini ta'minlash prinsiplariga muvofiqligi yuzasidan tahlil qilish gender-huquqiy ekspertizada amalga oshiriladi. Jinsiy mansubligidan qat'i nazar, shaxslarning huquqlari, majburiyatlari, imkoniyatlari va javobgarliklarini belgilashda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nomutanosibliklarni bartaraf etish maqsadida jamiyat hayoti va faoliyatining barcha sohalari, shu jumladan, siyosat, iqtisodiyot, huquq, mafkura va madaniyat, ta'lim hamda ilm-fan sohaslarini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar va ularning loyihalari gender-huquqiy ekspertizadan o'tkaziladi.

Mazkur nizomga ko'ra, "normativ-huquqiy hujjatlar va ularning loyihalarining gender-huquqiy ekspertizasi:

– jins bo'yicha bevosita va bilvosita kamsitish imkonini yaratadigan normativ-huquqiy hujjat yoki uning loyihasining xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlarini ta'minlash prinsiplariga (keyingi o'rinlarda – gender tenglik prinsiplari) muvofiq emasligini aniqlash;

– jinsi bo'yicha bevosita yoki bilvosita kamsitish imkonini yaratadigan normativ-huquqiy hujjat loyihasini qabul qilish oqibatlarini umumiy baholash;

– normativ-huquqiy hujjatlarni qo'llash jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan va kamsitish xususiyatiga ega xavflarni aniqlash;

– jinsi bo'yicha bevosita yoki bilvosita kamsitishga yo'l qo'yadigan va aniqlangan normalarni bartaraf etishga yo'naltirilgan tavsiyalarni ishlab chiqishga qaratilgandir".

Korrupsiyaga qarshi ekspertiza. O'zbekiston Respublikasi adliya vazirining 2021-yil 24-fevraldagi 2-mh-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Normativ-huquqiy hujjatlar va ular loyihalarining korrupsiyaga qarshi ekspertizasini o'tkazish tartibi to'g'risida"gi nizomga muvofiq, korrupsiyaga qarshi ekspertiza – normativ-huquqiy hujjatlar va ular loyihalarida korrupsiyaviy omillarni aniqlash, aniqlangan korrupsiyaviy omillarni bartaraf etishga qaratilgan tavsiyalar ishlab chiqish va choralar ko'rishga yo'naltirilgan chora-tadbirlar majmui hisoblanadi.

Nizomga ko'ra, korrupsiyaga qarshi ekspertiza korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar sodir etish imkoniyatini yaratadigan, korrupsiyani yuzaga keltiradigan omillarni aniqlash, loyihani qabul qilishning korrupsiya holatlari uchun imkoniyat yaratadigan oqibatlarini umumiy tarzda baholash, normativ-huquqiy hujjatlarni qo'llash jarayonida korrupsiya xususiyatiga ega tavakkalchiliklarning yuzaga kelish ehtimolini prognoz qilish, aniqlangan korrupsiyani yuzaga keltiruvchi omillarni bartaraf etishga qaratilgan tavsiyalar ishlab chiqish va choralar ko'rish maqsadida amalga oshiriladi.

Tartibga solish ta'sirini baholash. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 15-martdagi PQ-5025-son qarori bilan tasdiqlangan "Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari va qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarni tartibga solish ta'sirini baholashdan o'tkazish tartibi to'g'risida"gi nizomga ko'ra, tartibga solish ta'sirini baholash

(TSTB) – loyihaning qabul qilinishi natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ehtimoliy oqibatlarini aniqlash va baholash, shuningdek, normativ-huquqiy hujjatning tartibga solish maqsadlariga erishilganligi, samaradorligi hamda tartibga solish usulini qo'llashda vujudga kelgan oqibatlarini aniqlashga qaratilgan chora-tadbirlar majmuyi hisoblanadi.

Nizomga muvofiq, TSTB muammoni, uni hal etish yo'llarini, tartibga solish maqsadini tahlil qilish orqali loyihani ishlab chiqish va qabul qilish, shuningdek, normativ-huquqiy hujjatning amal qilishi natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ehtimoliy oqibatlar, shu jumladan, manfaatdor tomonlarning asossiz xarajat qilishi, ortiqcha majburiyat yuklashi, taqiq va cheklovlar mavjudligini aniqlash maqsadida o'tkaziladi. Tadbirkorlik faoliyati, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari hamda atrof-muhitga ta'sir ko'rsatishni nazarda tutuvchi normativ-huquqiy hujjat loyihasi va qabul qilingan normativ-huquqiy hujjat majburiy tarzda TSTBdan o'tkaziladi.

Ilg'or xorijiy tajriba. Ma'lumot o'rnida qayd etish joizki, xorijiy mamlakatlarda norma ijodkorligi faoliyati, xususan, normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarining huquqiy ekspertisasi va ushbu bosqichda ishtirok etuvchi davlat organlari faoliyati o'rganilganda, asosan ushbu faoliyat aynan adliya organlari zimmasiga yuklatilganligi ma'lum bo'ldi.

Jumladan, *Germaniya Federativ Respublikasi, Kanada, Singapur, Rossiya Federatsiyasi, Belarus Respublikasi, Qozog'iston Respublikasi* kabi mamlakatlarda normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarining huquqiy ekspertisasi ushbu davlatlar adliya organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Germaniya Federal Adliya va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish vazirligining IV Departamenti qonun va qarorlar loyihalarining norma ijodkorligi qoidalari-ga rioya etilishi nuqtayi nazaridan yuridik ekspertizasini amalga oshiradi. Yuridik ekspertiza doirasida mazkur departament

boshqa federal vazirliklarning qonun va qarorlar loyihalarini amaldagi qonunchilik normalariga muvofiqligi bo'yicha o'rganadi. Bunda qonunchilikning tasnifi va huquqiy mantiq tamoyillariga rioya etilganlik ham hisobga olinadi. Shuningdek, IV Departament inson huquqlarini o'z ichiga olgan Germaniya Federativ Respublikasi ishtirokidagi xalqaro huquq sohasidagi loyihalar bo'yicha yuridik xulosalarni tuzishga javob beradi [10].

Bundan tashqari, Germaniya Federativ Respublikasi Adliya vazirligining yana bir tuzilmasi III Departamenti (Savdo va xo'jalik huquqi) ham soliq va moliya, xo'jalik huquqi sohasidagi vazirliklar ishlab chiqqan qonun va qarorlar loyihalari bo'yicha huquqiy xulosa beradi [11].

Kanada davlatining "Adliya vazirligi to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq, vazirlik taqdim etilgan qonun loyihasi qoidalarini Kanada erkinlik va huquqlar Xartiyasi qoidalariga muvofiqligi nuqtayi nazaridan huquqiy ekspertizadan o'tkazadi [12].

Singapur Adliya vazirligi hukumatga oid bo'lgan barcha turdagi qonun loyihalarini Singapur Konstitutsiyasi va to'g'ri huquqiy siyosat prinsiplariga muvofiqligi predmeti bo'yicha o'rganadi [13].

Rossiya Federatsiyasi Adliya vazirligi Rossiya Federatsiyasi Adliya vazirligi to'g'risidagi nizomga muvofiq, Rossiya Adliya vazirligi ijro etuvchi hokimiyat federal organlari tomonidan Rossiya Federatsiyasi Prezidenti va Hukumati ko'rib chiqishi uchun kiritiladigan boshqa normativ-huquqiy hujjatlar va qonunchilik loyihalarini, shuningdek, federal qonunlar loyihalarini ishlab chiqishdagi konsepsiya va texnik topshiriqlarning loyihalarini huquqiy ekspertizadan o'tkazadi. Mazkur nizomga ko'ra, Rossiya Adliya vazirligi tomonidan normativ-huquqiy hujjatlar va ularning loyihalarining mustaqil antikorrupsion ekspertizasini o'tkazish bo'yicha ekspertlarni akkreditatsiya qilish amalga oshiriladi [13].

Rossiya Adliya vazirligi boshqarmalari to'g'risidagi nizomning 6-bandi 12) kichik bandida adliya boshqarmalari tomonidan Rossiya Federatsiyasi subyektlari normativ-huquqiy hujjatlarining Federatsiya Konstitutsiyasi va qonunlariga muvofiq kelishi predmeti bo'yicha huquqiy ekspertizadan o'tkazilishi belgilangan. Rossiya Federatsiyasi subyektlarining normativ-huquqiy hujjatlarini Federatsiya Konstitutsiyasi va (yoki) qonunlariga zid kelganligi haqida ekspert xulosasi nusxasi prokuror ta'sir chorasi qo'llanishi uchun prokuratura organlariga taqdim etiladi [14].

Bizning fikrimizcha, yuqorida qayd etilgan Rossiya Federatsiyasi adliya organlarining norma ijodkorligi sohasidagi ushbu tajribasi-ning mamlakatimiz qonunchiligiga joriy etilishi maqsadga muvofiq.

Belarus Respublikasi Vazirlar Kengashining 1605-sonli qarori bilan tasdiqlangan Belarus Respublikasi Adliya vazirligi to'g'risidagi nizomning 5.3-kichik bandiga ko'ra, Adliya vazirligi tomonidan Milliy bank, Davlat nazorati qo'mitasi, Respublika Prezidentining ishlar Boshqarmasi, Tergov qo'mitasi, Sud ekspertizasi davlat qo'mitasi, Milliy fanlar akademiyasi, vazirliklar, boshqa respublika davlat boshqaruv organlari, viloyatlar va Minsk shahar Xalq deputatlari kengashlari, viloyat ijroiya qo'mitalari va Minsk shahar ijroiya qo'mitalari normativ-huquqiy hujjatlarining majburiy yuridik ekspertizasi amalga oshiriladi [16].

Nizomning 6.4-kichik bandida Adliya vazirligi Respublika Vazirlar Kengashi qarorlari loyihalarini majburiy yuridik ekspertizadan o'tkazishi va xulosa berishi, shuningdek, respublikaning xalqaro shartnomalari va investitsiyaviy shartnomalari loyihalarini bo'yicha xulosa berishi, qonunchilikda belgilangan hollarda, Hukumat kafalligidagi kredit shartnomalari bo'yicha yuridik xulosalar berishi, Respublika Prezidentining qonun loyihalari, dekret, farmon va farmoyishlari loyihalarini kelishishni amalga oshirishi belgilangan [17].

Qozog'iston Respublikasida adliya organlari normativ-huquqiy hujjatlar va Qozog'iston kafilligidagi qarz shartnomalarining huquqiy ekspertizasini amalga oshiradi. Shu bilan birga, ushbu mamlakat adliya organlarida markaziy davlat organlari, idoralar, akimat (hokimlik) va akim (hokim)larning normativ-huquqiy hujjatlari davlat ro'yxatidan o'tkaziladi [18].

Xulosalar

Norma ijodkorligi faoliyatida muhim ahamiyatga ega bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini huquqiy ekspertizadan o'tkazish bosqichini yanada takomillashtirish maqsadida quyidagi takliflar ilgari surilmoqda:

1. Huquqiy ekspertiza davomida normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarida aniqlangan jiddiy qonun buzilishi va boshqa huquqbuzarlik holatlari yuzasidan tuziladigan ekspert xulosasi *nusxasi qonuniy chora ko'rish uchun vakolatli organlarga taqdim etilishi maqsadga muvofiq*. Bunda yuridik-texnik va tahrirlash, terminlar bo'yicha va stilistik hamda ishni sudda ko'rib chiqish uchun asoslarga ega bo'lmagan xarakterdagi qoida buzilishlari haqidagi ekspert xulosalari taqdim etilmaydi.

Mazkur taklifning mohiyati shundan iboratki, normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari huquqiy ekspertizasi bosqichida aniqlangan har qanday huquqbuzarliklarga tegishli chora ko'rgan holda sohada qonun ustuvorligini ta'minlashdir.

2. Mahalliy davlat hokimiyati organlari mansabdor shaxslari va boshqa xodimlari tomonidan hududiy adliya organlaridan

huquqiy ekspertizadan o'tkazilmagan normativ-huquqiy hujjatlarni amalga kiritganlik uchun ularning ma'muriy javobgarligini belgilash. Amaliyotda mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari loyihalari hokimliklarning tarkibiy bo'linma rahbari yoki mutaxassislari tomonidan ishlab chiqiladi va hokim tomonidan tasdiqlanganidan keyin ijroga qaratiladi. Tarkibiy bo'linmalarning rahbarlari ma'lum bir sabablar (lavozimidan ozod etilgan, mehnat ta'tili va boshqa sabablar)ga ko'ra bo'lmaganda, ularning mutaxassislari tomonidan qaror loyihalari ishlab chiqilib, amalga kiritiladi.

Qayd etilganlardan kelib chiqib, mahalliy davlat hokimiyati organlari mansabdor shaxslari yoki mutaxassislari (xodimlari) tomonidan hududiy adliya organlaridan huquqiy ekspertizadan o'tkazilmagan normativ-huquqiy tusdagi qarorlarni amalga kiritganlik bo'yicha ularni ma'muriy javobgarlikka tortish haqida ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qonunchilikka o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish taklif etiladi.

3. Bizningcha, normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini huquqiy ekspertizadan o'tkazish davomida qonunchilik hujjatlari loyihalarining xalqaro hujjatlar normalariga muvofiqligini aniqlashga e'tibor qaratilishi maqsadga muvofiq.

Ushbu taklifdan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 20-apreldagi "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi qonuni 26- va 27-moddalariga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishi lozim.

REFERENCES

1. Begmatov E., Madvaliyev A., Mahkamov N., Mirzayev T. et al. O'zbek tilining izohli lug'ati: 80.000 dan ortiq so'z va so'z birikmasi [An explanatory dictionary of the Uzbek language: more than 80,000 words and phrases]. Institute of Language and Literature of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan. Tashkent, O'zbekiston milliy ensiklopediyasi State Scientific Publ. House, 2006, vol. 1, p. 27.

2. Razuvaev A.A. Ekspertiza kak sredstvo povysheniya effektivnosti protsessa pravorealizatsii (voprosy teorii i praktiki) [Expertise as a means of improving the effectiveness of the process of law realization (question theory and practice)]. Abstract of PhD thesis. Saratov, 2006.
3. Sidelnikov Yu.V. Ekspertiza: sostoyaniye i tendentsiya razvitiya [Expertise: cost and trend development]. *World Economy and International Relations*, 1997, no. 2, p. 23.
4. Najimov M.K. Norma ijodkorligi [Norm creativity]. Tashkent, TSUL, 2018, p. 77.
5. Skurko Ye.V. Nekotoryye voprosy integratsii ekspertnogo znaniya v zakonodatel'nyu deyatelnost' [Some issues of integration of expert knowledge in legislative activities]. *Representative Power – XXI Century: Legislation, Comments, Problems*, 2002, no. 2-3, p. 46.
6. Khayitov Kh.S. Qonun ijodkorligida ekspertiza o'tkazishning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish [Improvement of the organizational and legal basis of expertise in law-making]. Abstract of Doctors degree dissertation. Tashkent, 2018, p. 14. Available at: https://www.researchgate.net/publication/369282946_KONUN_IJODKORLIGIDA_EKSPERTIZA_UTKAZISNING_TASKILIJ-UKUKIJ_ASOSLARINI_TAKOMILLASTIRIS/.
7. Yuridicheskaya ekspertiza normativnykh pravovykh aktov [Legal expertise of normative legal acts]. Comp. D.Sh. Pirbudagova et al. 2nd ed., revised. and addit. Makhachkala, Dagestan State University Publ., 2017, p. 14
8. Mironov A.N., Ushakov S.N. Normativnoye upravleniye gosudarstvennykh i munitsipal'nykh upravleniy [Rulemaking of state and municipal authorities]. Moscow, INFRA-M Publ., 2019, p. 146.
9. Razd'yakonova Ye.V., Tretyakova, Ye.D. Pravovaya ekspertiza normativnykh pravovykh aktov [Legal expertise of normative legal acts]. Siberian Institute of Management – branch of RANEP. Novosibirsk, SibAGS Publ., 2014, p. 54.
10. Bundesministerium der Justiz und für Verbraucherschutz, BMJV [Federal Ministry of Justice and Consumer Protection]. Available at: www.bmjbv.de/.
11. Government of Canada. Justice Laws Website. Available at: <https://laws-lois.justice.gc.ca/eng/acts/J-2/page-1.html#s-4/>.
12. A Singapore Government Agency Website. Available at: <https://www.mlaw.gov.sg/about-us/what-we-do/legal-group/>.
13. Website Ministry of Justice of the Russian Federation. Available at: <https://minjust.ru/ru/print/22590/>.
14. National Legal Internet Portal of the Republic of Belarus. Available at: <http://www.pravo.by/document/?guid=3871&p0=C20101605/>.
15. Jurist – Legislative base of the Republic of Kazakhstan. Available at: <http://online.zakon.kz/>.

YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК REVIEW OF LAW SCIENCES

Huquqiy ilmiy-amaliy jurnal

Правовой научно-практический журнал

Legal scientific-practical journal

2023-yil 1-son

VOLUME 7 / ISSUE 1 / 2023

DOI: 10.51788/TSUL.ROLS.2023.7.1.

BOSH MUHARRIR:

Rustambekov Islambek Rustambekovich

Toshkent davlat yuridik universiteti rektori v.v.b., y.f.d.,
professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Xodjayev Baxshillo Kamolovich

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, y.f.d.,
dotsent

Mas'ul muharrir: O. Choriyev

Muharrirlar: Y. Yarmolik, F. Muhammadiyeva,
Sh. Yusupova, Y. Mahmudov

Musahhih: M. Patillayeva

Texnik muharrirlar: U. Sapayev, D. Rajapov

Tahririyat manzili:

100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35.
Tel.: (0371) 233-66-36 (1169)

Veb-sayt: review.tsul.uz

E-mail: lawjournal@tsul.uz

Obuna indeksi: 1385.

Jurnal 24.03.2023-yilda tipografiyaga

topshirildi. Qog'oz bichimi: A4.

Shartli 15,8 b.t. Adadi: 100. Buyurtma raqami: 12.

TDYU tipografiyasida chop etildi.